
Tashabbusli byudjet: Eng ko'p g'olib loyiha Farg'ona shahrida qayd etildi

“Tashabbusli byudjet” loyihasining 2022 yil 2-mavsumi yakunlandi. Joriy yilning 15 iyulidan 17 sentyabrga qadar davom etgan jarayonda viloyatimizda jamoatchilik tomonidan ilgari surilgan takliflarning 2709 tasi ovoz berish bosqichiga o'tkazilgan bo'lib, ushbu takliflarga jami 1 mln. 282,7 mingta ovozlar to'plandi hamda loyihaga aholining qamrov darajasi 33 foizni tashkil etdi.

Mazkur tadbir uchun Fuqarolar tashabbusi jamg'armalaridan jami 116,1 mlrd.so'm mablag'lar yo'naltirilgan. Tashabbusli byudjet loyihasining natijalariga ko'ra viloyatda amalga oshirish qiymati 107,4 mlrd.so'mlik 126 ta eng ko'p ovoz to'plagan loyihalar g'olib deb topildi.

Shahar va tumanlar kesimida esa eng ko'p g'olib loyiha Farg'ona shahrida qayd etildi: 23 ta. Qo'qon shahrida 15 ta, Marg'ilon shahrida 11 ta, Quva, Bag'dod va Buvayda tumanlarida esa 7 tadan tashabbuslar g'olib loyihalar ro'yxatidan o'rin oldi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-09-20 08:38:45